

**Barakali so'm nomli muddatli omonatning asosiy shartlari to'g'risidagi axborot
VARAQASI**

*

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	Mkbank.uz 1285-aloqa markazi
---	---------------------------------

1-bo'lim. Omonatning asosiy shartlari

1. Omonat nomi	Barakali so'm
2. Omonatning valyutasi	Milliy valyutada
3. Omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi (agar omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi differensiallashgan yoki omonatni rasmiylashtirish usuliga bog'liq bo'lsa, har biri alohida ko'rsatiladi)	Yillik 20% (mobil ilovada - yillik 21%)
4. Omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni asosiy mablag'ga qo'shib qayta foiz hisoblash)	Mavjud emas
5. Omonatning muddati	24 oy
6. Omonatga qo'yiladigan mablag'ning eng kam miqdori (agar mavjud bo'lsa)	3 000 000 so'm
7. Omonat bo'yicha foizlarni to'lash davriyligi	Har oy
8. Omonatni rasmiylashtirish usuli	bank ofisi, mobil ilova
9. Qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati	Mumkin
10. Avtouzaytirish (omomat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)	Mumkin emas
11. Boshqa shartlar	- Omonat karta bepul ochib beriladi. Omonat kartani qayta rasmiylashtirish uchun tarifga asosan to'lov amalga oshiriladi. - Omonat kartaga boshqa kartalar va boshqa manbalardan pul kirim qilish (P2P to'lovlar) taqiqlanadi; - Omonat kartaga faqat omonatga hisoblangan foizlar va omonat muddati tugaganda yoki muddatidan oldin olingan mablag'lar kirim qilinadi; - Omonat kartadan kartadagi mavjud pul mablag'lari doirasida barcha chiqim amaliyotlarini bajarish mumkin; - Karta va omonatning muddati tugaganda omonat va foizlarni chiqim qilish – bepul; - Omonatga hisoblangan foiz mablag'lari, omonat mablag'ini muddatidan oldin va muddati tugaganda "Mikrokreditbank" ATB bankomatlari hamda kassalaridan chiqim qilish – bepul;

2-bo'lim. Boshqa muhim shartlar

1. Omonatga qo'yilgan pul mablag'larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	Mavjud
--	--------

2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	Agar omonat shartnomasi tuzilgandan so'ng: - 1 oy ichida omonat to'liq qaytarib olinsa, foiz to'lab berilmaydi va avval to'langan foizlar omonat summasidan chegirib qolinadi; - 2 oydan 24 oygacha muddat ichida omonat to'liq yoki qisman qaytarib olinsa - yillik 20% dan to'lab beriladi.
---	---

Omonat qo'yishga rozi bo'lishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqing!

Siz omonatning shartlari, omonat bo'yicha foiz daromadlari va hisob-kitoblar tartibi to'g'risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlaringiz, Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni 1285 raqamli telefonga yoki (mikrokreditbank@exat.uz) elektron manzilga jo'natishingiz mumkin.

AXBOROT VARAQASINING TO'G'RILIGI VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI.

[emp_name]

[date_open]

(imzo)

Men, [client_name] omonat shartlari bilan tanishdim

[date_open]

(imzo)